



“ZAMONAVIY TA’LIM VA TILSHUNOSLIK RIVOJI”  
nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026

## LEXICAL-SEMANTIC ANALYSIS OF SOME PAIRS OF WORDS IN THE UZBEKISTAN LANGUAGE

**Muhammadjonova Dilafruz**

2nd-year Student, Uzbek Language and Literature Program Faculty of Philology  
National Pedagogical University of Uzbekistan named after Nizami

**Annotation:** This article analyzes the role of paired words in the lexical-semantic structure of the Uzbek language, their classification in terms of structure mechanisms, meaning and form, their stylistic and functional loading. Also, on the example of certain pairs of words, their role in language development is revealed.

**Base words:** lexical-semantic structure, even words, etymology, lexical unit, antonymy, dictionary composition

### O’ZBEK TILIDAGI AYRIM JUFT SO’ZLARNING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI

**Muhammadjonova Dilafruz**

Nizomiy nomidagi O’zbekiston Milliy pedagogika universiteti Filologiya  
fakulteti O’zbek tili va adabiyoti ta’lim yo’nalishi 2-bosqich talabasi

### ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ НЕКОТОРЫХ ПАР СЛОВ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

**Annotatsiya :** Ushbu maqolada o‘zbek tili leksik-semantik tuzilmasida juft so‘zlarning o‘rni, tuzilish mexanizmlari, ma’no va shakl jihatidan tasnifi, ularning stilistik va funksional yuklamalari tahlil qilinadi. Shuningdek, ayrim juft so‘zlar misolida ularning til taraqqiyotidagi roli ochib beriladi.

**Аннотация:** В данной статье будет проанализирована роль пар слов в лексико-семантической структуре узбекского языка, механизмы построения, классификация по значению и форме, их стилистическая и функциональная



**“ZAMONAVIY TA’LIM VA TILSHUNOSLIK RIVOJI”  
nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

нагрузка. Также на примере отдельных пар слов раскрывается их роль в развитии языка.

**Tayanch soʻzlar:** leksik-semantik tuzilish, juft soʻzlar, etimologiya, leksik birlik, antonimiya, lugʻat tarkibi.

**Базовые слова:** лексико-семантическая структура, пары слов, этимология, лексическая единица, антонимия, словарный состав

Til — bu millat tafakkuri, maʼnaviyati va madaniyatining koʻzgusi. Har bir til oʻzining lugʻaviy boyligi, morfologik tuzilishi va semantik qatlamlari orqali boshqa tillardan ajralib turadi. Oʻzbek tili ham oʻziga xos tuzilishga ega boʻlgan boy leksik tizimni oʻz ichiga oladi. Lugʻat tarkibining eng qiziqarli qatlamlaridan biri bu leksik-semantik birliklar, jumladan, koʻp qismli leksik birliklar yoki juft soʻzlar deb ataluvchi hodisalardir. Ular tilning ifodaviy imkoniyatlarini kengaytiradi, fikrni aniqroq va mazmundorroq ifodalashga xizmat qiladi. Juft soʻzlarning shakllanish mexanizmlari, ularning lingvistik tizimdagi oʻrni hamda grammatik xususiyatlari tilshunoslikda turli yoʻnalishlarda oʻrganilgan boʻlsa-da, ularning maʼno oʻzgarishlari tadqiqotlari hali-hanuz davom etmoqda. Tilshunos A. Madvaliyevning taʼkidlashicha, *“juft soʻzlar tildagi koʻp maʼnolilik, sinonimiya, antonimiya, emotsional boylik va stilistik vosita sifatida alohida qatlamni tashkil etadi”*<sup>1</sup>. Bu birliklar tildagi tabiatning oʻziga xosligi, xalq tafakkuri va estetik didining mahsuli sifatida eʼtirof etiladi. Juft soʻzlar tilda uchraydigan oddiy birikmalardan farqli oʻlaroq, ularning semantik yaxlitligi va stilistik funksiyasi bilan ajralib turadi. Ular koʻpincha umumlashtiruvchi, kuchaytiruvchi yoki emotsional yuklamaga ega boʻladi.

---

<sup>1</sup>Madvaliyev A. Oʻzbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: Oʻqituvchi, 2006. – B. 123.



**“ZAMONAVIY TA’LIM VA TILSHUNOSLIK RIVOJI”**  
**nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi**  
**VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

Ayniqsa, o’zbek tilida ikkinchi qismi mustaqil ma’noda kamroq ishlatiladigan yoki biroz noaniq bo’lgan, lekin birinchi qism bilan birga kengroq yoki kuchaytirilgan ma’no anglatadigan juft so’zlar mavjud. Bunday so’zlar keng omma tomonidan muloqotda faol qo’llaniladi. Biroq bu so’zlarning asl ma’nosini anglash va shu orqali muayyan nutqda qo’llash maqsadga muvofiq, albatta.

Jumladan, **“kam-ko’st”** juft oti tarkibidagi **“kam”** so’zi ma’nosi barchaga ayon va odatiy muloqotda faol qo’llaniladi. “O’zbek tilining izohli lug’ati”da esa **KAM** so’zi [f. کم –oz, ozgina, arzimas ] *talab, me’yor yoki odatdagiga nisbatan miqdori yetarli bo’lmagan, oz* ma’nosini anglatadi. Biroq **“ko’st”** so’zi sememasi noma’lum va yakka holda juda kam qo’llaniladi. “O’zbek tilining izohli lug’ati”da **KO’S**T [f. كوست –ozayish, kamayish, zarar, ziyon] kam qo’ll. *Biror narsaning ortiqcha, oshiqcha qismi* ma’nolari borligi keltiriladi. Bu kasbga oid termin hisoblanib, tikuvchilar orasida ko’p qo’llanadi. Masalan: Ko’stini qirqib tashlamoq. Ya’ni matoning ortiqcha qismini qirqib tashlamoq holatida. **“Kam-ko’st”** so’zi o’zbek tilida ko’p qo’llanadigan juft so’z bo’lib, asosan, biror narsaning: ishning, holatning, rejaning yoki inson xarakterining yetishmovchiligi, nuqsoni, kamchiligi, mayda ehtiyojlari yoki tugallanmagan, mukammal bo’lmagan muayyan narsani ifodalash uchun ishlatiladi. Bu birikma ko’pincha chuqur mulohaza, taqqoslash yoki biror narsaning ideal holatini tasavvur qilish natijasida paydo bo’ladigan nuqsonlarni ifodalaydi. Grammatik jihatdan ot vazifasini bajaradi. Demak, bir-biriga zid bo’lgan ikki otning birikuvidan antonim juft ot paydo bo’lmoqda. Ushbu turkumga kiradigan yana bir otli birikma bu **“amal-taqal”** birikmasidir. Juft so’zning birinchi qismi bo’lgan **“amal”** so’zining ma’nosi “O’zbek tilining izohli lug’ati”da quyidagicha keltirilgan: **AMAL** [ a. عمل – ish, harakat ] *ilm, nazariya, fikr va sh.k.ning hayotiy reallashuvi*<sup>2</sup>. Ammo **“taqal”** so’zi o’zbek tili

<sup>2</sup> O’zbek tilining izohli lug’ati. –Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. –B. 99.



**“ZAMONAVIY TA’LIM VA TILSHUNOSLIK RIVOJI”  
nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

leksikasida qanday ma’noga ega? Ushbu so’z izohli lug’atda **“taqal qilmoq”** kabi fe’l ko’rinishida kelgan bo’lib, *biror ishni bajarishga darrov kirishmay, o’ylanib qolmoq, kechiktirmoq, ketga surmoq, galga solmoq, bahona qilmoq*ni bildiradi. Masalan: *“Tojixon, qo’ying shu vajah-u taqalni”*<sup>3</sup>. Demak **“taqal”** so’zi yakka holda muloqotda kam ishlatiladi yoki o’zining asl ma’nosidan chekinadi. Ikki mustaqil ot birikma holda kelib, ma’no kuchaytiradi hamda uslubiy bo’yoqdorlikni oshiradi. Semantik jihatdan biror narsa-buyumni yomon, sifatsiz qilmoq holatida ma’no anglatadi. Muayyan ishning puxta, tartibli bajarilmaganligini izohlaydi. Grammatik jihatdan bu birikma ot, fe’l bilan birikkanda esa ravish vazifasini bajaradi. Bu so’zning tarkibiy va semantik tuzilishi uni tilimizning qiziqarli va ifodali vositalaridan biriga aylantiradi.

Kunlik muloqotda juda faol qo’llaniluvchi yana bir juft ot **“qo’ni-qo’shni”** birikmasidir. Juft ot tarkibidagi har ikki qism ma’nosini aniqlashtirish uchun yana o’zbek tilining izohli lug’atiga yuzlanamiz. **“Qo’shni”** so’zi *uylari, hovli-joylari yonmayon yoki yaqin bo’lgan kishilar, oilalar, xonadonlar (bir-biriga nisbatan)* ma’nosini anglatadi<sup>4</sup>. **“Qo’ni”** so’zi esa ayni holatda izohli lug’atda mavjud emas. Mazkur so’z **“qo’nim, qo’nim topmoq”** so’zining asrlar mobaynida qisqargan shakli sifatida namoyon bo’ladi. **“Qo’nim”** so’zi *qo’nish yoki turish joyi, manzil* ma’nosini<sup>5</sup>, **“qo’nim topmoq”** esa *muqim o’rnashib, turib qolmoq* ma’nosini anglatadi<sup>6</sup>. Masalan: *“Yog’in tinib, mo’ytanlar ovuli bilan qirdagi qiyotlar qo’nimi orasiga so’qmoq yo’llar tushdi”*<sup>7</sup>. Bu yerda qo’ni va qo’shni so’zlari bir-biriga ma’nodosh va yaqin hududiy-ijtimoiy aloqada bo’lgan shaxslar yoki joylarni ifodalaydi. Shuning uchun ular juft ot shaklida

<sup>3</sup> A.Muxtor “Kumush tola”.

<sup>4</sup> O’zbek tilining izohli lug’ati. –Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. –B. 361.

<sup>5</sup> O’zbek tilining izohli lug’ati. –Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. –B. 331.

<sup>6</sup> O’zbek tilining izohli lug’ati. –Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. –B. 331.

<sup>7</sup> Asqad Muxtor “Qoraqalpoq qissasi”.



**“ZAMONAVIY TA’LIM VA TILSHUNOSLIK RIVOJI”  
nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

“**qo’ni-qo’shni**” tarzida ishlatiladi. Semantik jihatdan “**qo’ni-qo’shni**” — *yaqin atrofdagi yashovchilar, mahalla ahli, yoki yon-atrofdagi kishilar degan ijtimoiy ma’nosini* anglatadi. Grammatik jihatdan esa ot vazifasini o’taydi.

O’zbek tili lug’at tarkibida yakka holda kam qo’llaniladigan yoki mustaqil ma’no anglatmaydigan, biroq ma’lum so’z bilan juft holatda ko’p uchraydigan juft otlardan yana biri “**yetim-yesir**” birikmasi hisoblanadi. “O’zbek tili izohli lug’ati”da **YETIM** [a. يتيم – ota-onasiz, yetim, yakka-yu yagona; noyob] *otadan, onadan yoki har ikkovidan ajralgan* ma’nosini<sup>8</sup>, **YESIR** [a. يسير – qullar, asirlar] *eri o’lgan, ersiz qolgan xotin, beva, tul* ma’nosini bildiradi<sup>9</sup>. Masalan: “Eroniylar el-yurtini talab, erkaklarni qul, xotinlarni yesir qilib ketayotirlar”<sup>10</sup>. Juftlikning har bir qismi alohida ma’noga ega bo’lsa ham, birgalikda ular yanada chuqurroq va ta’sirchan ma’no uyg’unligini hosil qiladi. Jumladan, “**yesir**” so’zining ba’zi variantlari va uning qo’llanish doirasi dialektlarda farqlanishi mumkin. Grammatik jihatdan ushbu birikma ot vazifasida keladi. Leksik-semantik jihatdan har ikkala qism birga “**yetim-yesir**” ko’rinishida himoyasiz, nochor, yordamga muhtoj kabi umumiy empatiya – hamdardlik tuyg’usini uyg’otadi.

Yoxud “**urug’-aymoq**” birikmasi o’zbek tilida keng qo’llanadigan, semantik jihatdan mustahkamlangan juft ot bo’lib, *o’zaro qarindoshlik, kelib chiqish, nasl-nasab va ijtimoiy birlashuv* ma’nolarini anglatadi. Bugungi kunda tilimizda mustaqil ravishda qo’llanmaydigan “**aymoq**” so’zi semantikasi va etimologiyasi qanday? O’zbek tili izohli lug’atida **AYMOQ** – *Mo’g’ul va turkiy xalqlar qadimiy urug’larining parchalanishidan kelib chiqqan turli tarmoqdagi o’zaro qon-qardosh oilalar birlashmasi, ittifoqi* kabi izohlanadi<sup>11</sup>. Masalan: “Bu aymoqdagilar sal ovsarroq ham.

<sup>8</sup> O’zbek tilining izohli lug’ati. –Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. –B. 179.

<sup>9</sup> O’zbek tilining izohli lug’ati. –Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. –B. 177.

<sup>10</sup> M.Osim “Karvon yo’llarida”.



**“ZAMONAVIY TA’LIM VA TILSHUNOSLIK RIVOJI”**  
**nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi**  
**VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

Ovsarliklari ko’proq mug’ombirlikka o’xshab ketadi, lekin rostdan ham esarroq”<sup>12</sup>. Demak, bu so’z **“urug”** so’ziga nisbatan ko’proq ijtimoiy tashkillashtirish, hududiy birlik yoki bir xil urf-odatga ega bo’lgan odamlar jamoasini nazarda tutadi. Haqiqatdan, tilimizda ko’p qo’llanuvchi mazkur birikmadagi **“aymoq”** so’zi **“urug”** ma’nosini kuchaytiradi. Bu shunchaki oila emas, balki keng qamrovli, tarixiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo’lgan qarindosh-urug’chilik aloqalarini, butun bir nasl-nasab zamjirini ifodalaydigan sinonim juft ot hisoblanadi. Bu juft otning har ikki qismi ham birgalikda murakkab ma’no hosil qiladi va kontekstdagi muayyan ma’noni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Jumladan, **“gap-gashtak”** juft oti ham tarixiy va zamonaviy o’zbek muloqotida faol qo’llanuvchi leksik birlik bo’lsa-da, birikmaning faqat bir qismi semantikasi bo’yicha qo’llaniladi. **Gashtak** so’zi esa “O’zbek tili izohli lug’ati”da birikma holda kelib, quyidagicha ma’no anglatadi: **GAP-GASHTAK** [gap + f. گشتک – sayr, tomosha qilish] *ayn.gap*<sup>13</sup>. Masalan: “Do’stboy elga qo’shildi: gap-gashtaklarda qatnashadigan bo’ldi”<sup>14</sup>. Semantik jihatdan ushbu juft ot *arzimagan, keraksiz gaplar, suhbat* ma’nosini bildiradi. Eng ko’p tarqalgan va asosiy ma’nosi bu **“gap-gashtak qilish”** – *o’zini chalg’itish, vaqtni o’tkazish yoki mavzudan chetga chiqish*. Ayrim hollarda, ijobiy kontekstda, bir inson bilan samimiy, zavqli suhbatni ham anglatishi mumkin. Grammatik jihatdan **“gap-gashtak”** ko’pincha ot vazifasini bajaradi. Ushbu leksik birlikning asosiy lingvistik xususiyati esa semantik kengayish hisoblanadi. Ya’ni **“gap”** so’zining o’zi suhbat ma’nosini anglatrsa, **“gashtak”** bilan birgalikda unga ahamiyatsizlik, mazmunsizlik kabi qo’shimcha semantik yuklama yuklanadi. Bu

<sup>11</sup> O’zbek tilining izohli lug’ati. –Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. –B. 196.

<sup>12</sup> N.Eshonqul “Yalpiz hidi”.

<sup>13</sup> O’zbek tilining izohli lug’ati. –Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. –B. 190.

<sup>14</sup> A.Yo’ldosh “Biz bo’lmagan joylarda”.



**“ZAMONAVIY TA’LIM VA TILSHUNOSLIK RIVOJI”**  
**nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi**  
**VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

so’zning ma’no doirasini kengaytiradi, albatta.

Ushbu turkumga kiradigan leksik birikmalardan yana biri bu **“huda-behuda”** so’zidir. Izohli lug’atda **HUDA-BEHUDA** [f. هُدَهٗ بَهْوَدَهٗ – foydali-foydasiz, kerakli-keraksiz] *Bekordan bekorga, kerak bo’lsa-bo’lmasa, o’rinsiz* ma’nolarini bildiradi<sup>15</sup>. Bundan kelib chiqadiki, bu juft sifatning tarkibidagi qismlar bir-biriga zid, ya’ni antonim. **“Huda”** so’zi *foydali* ma’nosini anglatda, muloqotda deyarli qo’llanilmaydi, biroq **“behuda”** so’zi bilan birgalikda *befoyda, samarasiz* ma’nolarini kuchaytiradi. Semantik jihatdan **“huda-behuda”**, umumiy ma’noda, vaqtini, kuchini yoki resursini befoyda sarflashni ifodalovchi ta’rif bo’lib, biror ish yoki harakat natija bermaydigan holatni ko’rsatadi. Masalan: “Toshev kelgandan beri Mahkam dekanatga huda-behuda kirishdan juda tortinardi”<sup>16</sup>.

**“O’t-o’lan”** juft oti ham muloqotda faol ishlatiladi. Bu birikmaning ham bizga faqat bir qismi– **“o’t”** qismi sememasi ma’lum. **“O’lan”** so’zi izohi va birinchi qism bilan qanday aloqadorligi borligini, shubxasiz, “O’zbek tili izohli lug’ati”dan aniqlashtiramiz. **O’T** so’zi *poyasi yog’ochlanmaydigan, chorva mollari uchun asosiy ozuqa bo’ladigan yashil o’simlik; alaf* ma’nosini anglatadi<sup>17</sup>. **O’LAN** so’zining ayni izohi ham *o’t*<sup>18</sup>. Masalan: “Yengilgina esgan shamol dimog’ga turli o’lan islarini keltirib urar edi”<sup>19</sup>. **O’t-o’lan** — ma’no jihatidan o’xshash, o’simliklar turkumiga mansub ikkita so’zdan tashkil topgan juft ot bo’lib, odatda begona o’simliklar, mayda o’tlar, maysalar majmuini ifodalashda ishlatiladi. Reduplikativ (takrorlovchi) birlik xususiyatiga ega, ya’ni har ikki so’z mazmunan yaqin, poetik va ifodali nutqda ko’proq qo’llaniladi.

<sup>15</sup> O’zbek tilining izohli lug’ati. –Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – B.456.

<sup>16</sup> P.Qodirov “Uch ildiz”.

<sup>17</sup> O’zbek tilining izohli lug’ati. –Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. –B. 454.

<sup>18</sup> O’zbek tilining izohli lug’ati. –Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. –B. 406.

<sup>19</sup> A. Qodiriy “O’tkan kunlar”.



**“ZAMONAVIY TA’LIM VA TILSHUNOSLIK RIVOJI”**  
**nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi**  
**VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

Stilistik jihatdan ko‘plik yoki turlilik ma’nosini kuchaytiradi. Juft otning sintaktik jihatdan ot va ega vazifasini bajaradi. Demak, ushbu birikma muloqotda muayyan ma’no kuchaytirish uchun foydalaniladi hamda “o’t” so‘zidan ko‘ra ko‘proq ma’noni qamrab oladi.

Navbatdagi tahlilga tortiluvchi birikma **“bola-chaqa”** juft oti bo‘lib, ushbu so‘z ma’no jihatidan o‘xshash va bir guruhga oid ikki mustaqil so‘zdan tashkil topgan, *insonning farzandlari, ya’ni bolalari majmuasini* ifodalaydi. Ikki otning birikmasidan tuzilgan (bola + chaqa). Ikkala komponent ham mustaqil leksik birlik bo‘lib, ularning ma’nolari o‘zaro yaqin. Ko‘pincha insonlar bola – odamning kichigi, chaqa esa pulning eng maydasi, shuning uchun ham bu ikki ot o‘zaro birlashgan, deb o‘ylaydilar. Aslida juft ot tarkibidagi **“chaqa”** so‘zining biz bilgan pul, mablag‘ so‘zlari bilan aloqadorligi yo‘q. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da **CHAQA** so‘zining *bola, farzand* kabi alohida ma’nosi ham bor<sup>20</sup>. Mazkur so‘z ko‘proq shevada qo‘llaniladi va bola ma’nosini kuchaytirib, umumiylikni hosil qiladi. Bunday tuzilish ko‘plik va turlilik ma’nosini kuchaytiradi. Bu juftlik ko‘plik yoki turli yoshdagi bolalar (katta-kichik) majmuasini anglatadi. Aynan shuning uchun og‘zaki nutqda, mehr bilan, ko‘p farzandli oilani ta’riflashda **“bola-chaqa”** iborasi ishlatiladi.

O‘zbek tilida juft so‘zlar, ayniqsa, birinchi komponenti mustaqil ma’noga ega bo‘lgan, ikkinchi qismi esa leksik mustaqilligi zaifroq yoki og‘zaki tildagina saqlanib qolgan so‘zlardan tashkil topgan birikmalar, xalq orasida keng qo‘llaniladi. Bunday juft so‘zlar, ko‘pincha, turlilik, kuchaytirish, yoki emotsional boyitish maqsadida ishlatiladi. Yuqorida tahlilga tortilgan ayrim birliklar bir qarashda sinonimik yoki fonetik yaqinlikka asoslangandek tuyulsa-da, ularning ikkinchi qismlari ba’zida o‘zbek tilining zamonaviy lug‘aviy tizimida alohida, mustaqil birlik sifatida kam qo‘llaniladi yoki

<sup>20</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. –B. 730.



**“ZAMONAVIY TA’LIM VA TILSHUNOSLIK RIVOJI”  
nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

noaniq semantik tus kasb etgan bo‘ladi. Bu holat tilimizdagi yuzaki tanish, biroq semantik jihatdan chuqur o‘rganilmagan so‘zlar qatlamini shakllantiradi. Ayniqsa, xalq og‘zaki nutqida faol qo‘llanilgan ushbu juft so‘zlar uslubiy boylik vazifasini bajaradi, gapga ifodaviylik, obrazlilik, va kuchli emotsional rang beradi. Shuningdek, ayrim hollarda bunday so‘zlar arxaik yoki dialektal birliklarning saqlanib qolishiga xizmat qiladi. Shu sababli, bunday juft so‘zlarning asl ma’nosini tahlil qilish, ularning semantik tuzilmasi, uslubiy xususiyatlari va nutqdagi funksional vazifalarini aniqlash tilshunoslik nuqtai nazaridan dolzarb hisoblanadi. Bu esa, o‘z navbatida, nutq madaniyati, til boyligini oshirish, va ona tilimizdagi yirik leksik qatlamlarni chuqurroq o‘rganishga xizmat qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :**

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – 862 b.
2. Madvaliev A. O‘zbek tili leksikologiyasi. – T.: O‘qituvchi, 2006. – 315 b.
3. P.Qodirov “Uch ildiz”. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1979. – 416 b.